

QUR'ONI KARIMNING TAFSIRI VA TARJIMA ILMINING AHAMIYATI

Sheraliyev Jo'rabek O'lmasvoy o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Telefon raqami: 97 543 39 33

Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada Qur'oni karimning tafsiri va uning tarjimasini to'g'risida gap boradi. Boshqacha qilib aytganda, tafsir va tarjima ilmlarini o'rganish, tafsir va tarjima ilmlariga qachondan boshlab ehtiyoj paydo bo'lgani haqida, hamda tafsir va tarjima ilmlarining turlari, ularning ko'rinishi va mufassirning odoib-axloqi to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'z: Tafsir, tarjima, Qur'on, sura, mutolaa, ilm, nabiy, rosul, ma'nolarning bayoni.

O'zbek xalqining ilmga bo'lgan ishtiyoqi, xususan, Qur'oni Karim tafsiri va tarjimalariga bo'lgan qiziqishi natijasida bugungi kungacha ko'plab tarjima va zamonaviy tafsirlar yaratildi.

Eski o'zbek adabiy tilida Sayyid Mahdum ibn Sayyid Nazr Taroziy Madaniy Oltinxonto'ra, Shayx Alouddin Mansur, Shayx Abdulaziz Mansur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Dr Usmonxon Alimov tomonidan amalga oshirilgan tarjima va tafsirlar xalqimiz e'tirofiga sazovor bo'lgan va har bir xonadon to'ridan joy olgan. Shundan kelib chiqib, zamonaviy tarjima va tafsirlarni o'rganish, tadqiq qilish ahamiyatlidir.

Tafsir Qur'oni Karimni bevosita o'rganadigan ilm bo'lgani bois unga islom olimlari alohida e'tibor qaratganlar va qadrini yuqori sanaganlar. Tafsir borasida asrlar osha juda ko'plab tadqiqotlar va adabiyotlar yaratildi, dinni o'rganmoqchi bo'lgan har qanday izlanuvchi unga ahamiyat qaratgan. Natijada oyatlarni sharhlashda turli yondashuv va qarashlardan iborat kitoblar yaratildi. Masalan, islom olamida mashhur bo'lgan Imom Tabariy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Lays Samarqandiy, Ibn Atiya Andalusiy, Ibn Kasir, Abul Barakot Nasafiy kabi bir qator olimlar Qur'onga to'liq tafsir kitoblari yozgan bo'lsalar, Dehlaviy, Xoliq Abdurahmon Akk. Siddiq Hasanxon singari tadqiqotchilar tafsir ilmi asoslari va usullari haqida asarlar yaratganlar. Shuningdek, G'arb olimlaridan K.Brokkelman, F.Myuller, Ch.Ryo, Ch.A.Stori yoki A.T.Tagirjanov, F.I.Abdullayeva va boshqa olimlar o'z asarlarida Qur'onga doir tadqiqotlarga alohida to'xtalib o'tganlar. [1:56]

Tafsir so'zi lug'atda "izohlash" va "bayon qilish" degan ma'noni anglatadi. Istilohda esa Alloh taolo O'z nabiyasi Muhammad sollallohu alayhi vassalamga nozil qilgan kitobi ma'nolarining bayonini tushuntiradigan va uning ma'nolarini bayon qilib, ahkomlari va hikmatlarini yuzaga chiqarib beradigan ilmdir. [2:266]

Bilamizki, Payg'ambar alayhissalom hayotlik chog'larida tafsir ilmi bilan shug'ullanilmagan, buning sababi shuki, dastavval ilk risolat davrida oyatlar nozil bo'lishi davom etib turganligi hamda dastlabki musulmonlar arablar bo'lganligi tufayli Qur'oni Karimni tushunishda, ya'ni uni balog'ati va fasohatini to'g'ri anglab yetishda ko'plab muammolar tug'ilmagan. To'g'ri, ayrim oyatlar nozil bo'lganida ba'zi sahobalar gap nima haqida ketayotganini boshida anglamagan holatlar ham bo'lgan. Bunga misol:

وأبا وفاكهة

"Va meva-chevayu o't o'lanlarni" (Abasa surasi, 31-oyat) degan qavlga olaylik. U ushbu oyatdan boshqa joyda ishlatilganini kam uchraydi. Hazrati Umar roziyallohu anhuddek zot ham ushbu oyatni tilovat qilib turib, "Fakihatani" ni-ku bilamiz, "Abban" nima degani?" deb hayron bo'lganlar. Xuddi shunga o'xshash holat Hazrat Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuda ham bo'lgan". [3:361] Shunday bo'lsa ham sahobalarda Qur'on Karim to'g'risida savol tug'ilsa, darrov Payg'ambar alayhissalomni huzurlariga borib so'rashar edi. Bu Qur'oni Karimni sharhlab beruvchi inson borligi va boshqa sharhlovchiga hojat yo'q ekanligiga dalolat qilar edi. Shu bilan birga ilk risolat davrida Qur'oni Karim to'liq kitob holiga keltirilinish, tafsir qilinmaganini sabablaridan yana biri shuki, Qur'on Karim to'liq shaklda nozil bo'lmagan, balki atrofda bo'layotgan voqea va hodisalarga mutanosib holatda tadrijiy nozil bo'lib borayotgan edi. Boshqacha qilib aytganda, Rosululloh sollallohu alayhi vassalamning davrlarida biror hodisa ro'y beradi yoki u zotga savol beriladi. Shu munosabat ila bir yoki bir necha oyatlar nozil bo'lib, Alloh taolo ularda mazkur hodisaga bog'liq narsani bayon qiladi yoki savolga javob beradi. Ana o'sha hodisa va savol "Sababi nuzul" bo'ladi.

Bunga misol qilib aytadigan bo'lsak, "Ibn Jarir, Vohidiy, Firyobiy va Ibn Abu Hotim Abdulloh ibn Abbas roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar:

"Yahudiylardan Shos ibn Qays ismli odam Avs va Hazraj qabilasiga mansub arablarning majlis qurib, gaplashib o'tirgan joylaridan o'tdi. Johiliyat vaqtida bir-biriga adovati kuchli bo'lgan bu kishilarning bunday ulfat bo'lib o'tirishlari uning g'ashiga tegdi va "Bular birlashsalar, biz bular bilan yonma-yon yashay olmay qolamiz", deb, bir yahudiy bolani chaqirdi va unga: "Arablarning ichiga borib o'tirgin-da, ularga "Bu'os" kunini eslat va u haqdagi she'rlardan o'qib ber", deb buyurdi. ("Bu'os" kunida Avs va Hazraj qabilalari qattiq urushib, Avs g'olib chiqqan edi.) Haligi yahudiy bola Shosning aytganini qildi. O'tirganlar tortishib, achchiqlashib, urushib ketishdi. «Qurol!!! Qurol!!!» deb baqirishdi. Bu mojaro Payg'ambar alayhissolatu vassalomga borib yetganda huzurlaridagi muhojirlar-u ansoriylarni olib, ularning oldiga bordilar.

Ularga: “Men ichingizda turib, Alloh sizlarni Islom bilan ikrom qilganidan keyin, johiliyat ishini kesganidan keyin, orangizga ulfatlikni solganidan keyin ham johiliyat da’vosini qilaszizlarmi?” dedilar.

Odamlar dushmanning gapiga uchib, shayton yo‘liga yurganlarini anglab yetdilar. Qurolni tashlab, yig‘lab, quchoqlashib ketdilar. Rasululloh sollallohu alayhi vassalam bilan birga itoatkor holda qaytdilar. Shunda Oli Imron surasidagi ushbu oyat nozil bo‘ldi:

فَأَصْبَحْتُمْ قُلُوبِكُمْ بَيْنَ يَدَيْكُمْ فَأَلْفَ أَعْدَاءَ كُنْتُمْ إِذْ عَلَيْكُمْ اللَّهُ نِعْمَتٌ وَأَذْكُرُوا تَفَرَّقُوا وَلَا جَمِيعًا اللَّهُ بِحَبْلِ وَأَعْنَصُمُوا تَهْتَدُونَ ١٠٣ لَعَلَّكُمْ آيَاتِهِ لَكُمْ اللَّهُ يُبَيِّنُ كَذَلِكَ مِنْهَا فَأَنْفَذَكُمْ النَّارَ مِنْ حُفْرَةٍ شَفَا عَلَى وَكُنْتُمْ إِخْوَانًا بِنِعْمَتِهِ

“Barchangiz Allohning arqonini mahkam tuting va bo‘linib ketmang. Va Allohning sizga bergan ne‘matini eslang: bir vaqtlar dushman edingiz, bas, qalblaringizni ulfat qildi. Uning ne‘mati ila birodar bo‘ldingiz. O‘tli jar yoqasida edingiz, sizni undan qutqardi. Alloh sizga O‘z oyatlarini ana shunday bayon qiladi. Shoyadki, hidoyat topsangiz” (103-oyat). [3:160-161]

Shu tariqa, Qur‘on Karim oyatlari 23 yil davomida to‘liq nozil bo‘ldi va tavhid to‘liq shakllandi. Payg‘ambar alayhissalom vafotlaridan so‘ng, xalifalar davrlarida islom diyorlari kengayib, ko‘plab fathlar bo‘ldi. Buning natijasida ko‘plab turli millatlarga mansub ajam xalqlari iymon keltirib musulmon bo‘ldilar. Islom bayrog‘i turli o‘lkalarga o‘rnatilgandan keyin aholi o‘rtasida dinni tushunish qiyinlashdi, buning asosiy sababi, ajam xalqlari arab tilini bilishmas edi. Shunday holatlar tafsir ilmiga katta ehtiyoj tug‘dirdi. Bu davrda tafsirlar yozma holatda bo‘lmay, hadislar tarkibida bob tarzida og‘zaki rivoyat qilingan. Umuman, tafsirlar Ummaviylar hukmronligining (661-750) oxiri va Abbosiylar davri (750-1258) boshlarigacha hadis tarkibida rivoyat tarzida bo‘lgan. Islom ilmlarining kitob shakliga keltirilish jarayonida, ya‘ni 8-9-asrdan boshlab hadislar, sahobiy va tobeinlar so‘zlari jamlanganda Qur‘on tafsiriga oid rivoyatlar ham jamlanib borilgan. Ularning Qur‘oni Karimga qilgan sharhlarini to‘plashda Molik ibn Anas, Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy, Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Iso at-Termiziy kabi muhaddislarning xizmatlari salmoqli bo‘lgan.

Har kim o‘zi xohlaganicha Qur‘oni Karimni tafsir qilib ketmasligi uchun mufassir bilishi kerak bo‘lgan bir qancha ilmlarni aniq belgilab qo‘ydilar. Bular:

- arab tilini puxta bilishi;
- arab tilining sarf va ishtiyoq qoidalarini yaxshi bilishi;
- balog‘at ilmining nahv va e‘rob qoidalarini yaxshi bilishi;
- qiroatlarni yaxshi bilishi;
- aqida ilmini yaxshi bilishi;
- fiqh va uning usullarini yaxshi bilishi;

- Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vassalamning hadislarini yaxshi bilishi, ko‘pini yod olib qiroat qilgan bo‘lishi;
- mustalahul hadis ilmini yaxshi bilishi;
- sababi nuzul, nosix va mansux, makkiy va madaniy suralarni va boshqa ilmlarni yaxshi bilishi;
- ilohiy iqtidorga sohib bo‘lishi kerak. Shu tariqa ulamolar nafaqat mafassir bilishi zarur bo‘lgan ilmlarni balki, mufassir ega bo‘lishi kerak bo‘lgan odoblarni ham belgilab chiqqanlar. Bular:
 - hoy-u havasdan yiroq bo‘lishi;
 - amal;
 - husni xulq;
 - tavozeli va yumshoq fe‘lli bo‘lish;
 - sabrli va mulohazali bo‘lish;
 - naql qilingan rivoyatning ishonchliligini, roviyning zabtini tekshirgan bo‘lishi kerak;
 - puxta tayorgarlik ko‘rgan bo‘lishi va bu ishni munosib ravishda ado qilishga tayyorlangan bo‘lishi kerak. Bu ilmlar va odoblarni bilishidan asosiy maqsad Qur‘on Karim oyatlarini tafsir qilish shunchaki oddiy ish emasligini va har kim o‘zicha bu ishga yondashishi mumkin emasligini bildiradi.

Sahobiy va tobeinlarning so‘zlari, sharhlari keyingi davr mufassirlari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, Abul Lays Samarqandiy tafsirida ham sahobiy va tobeinlar so‘zlaridan keng istifoda etiladi. Makka maktabi asoschisi Ubay ibn Ka‘b, Iroq tafsir maktabi asoschisi Abdulloh ibn Mas‘ud va boshqa mufassir sahobiyalar hamda ularning tafsir maktablari namoyandalaridan bo‘lmish tobeinlar so‘zlari Abul Lays Samarqandiy tafsirida jamlangan. Ibn Jarir at-Tabariyning davrimizgacha yetib kelgan birinchi tafsir asarlaridan 30 jildlik tafsiri bo‘lib, davriy jihatdan undan keyin yaratilgan tafsir Abu Mansur Moturidiy va Abul Lays Samarqandiyga tegishli.

Yana shuni aytishimiz kerakki, tafsir ilmi rivojlanib borish natijasida bir qancha ishoriy, ya‘ni tasavvufga doir mavzularda yozilgan tafsirlar ham yozila boshladi. Bu qismda mufassir oyatning zohiriy ma‘nosiga qaramay, uning maxfiy ishoralari taqozosi bilan tafsir qiladi. Bu faqat suluk va tasavvuf arboblarning uslubidir. Bu qismga doir tafsirlarning mashhurlari quyidagilar: Imom Nizomiddin Hasan ibn Muhammad Husayn Xurosoniy Naysoburiyning “G‘aroibul Qur‘on va rag‘oibul Furqon”, Imom Sheroziyning “Aroisul bayon fiy xaqiqul Qur‘on” kitoblaridir.

Tafsir kitoblari juda ham ko‘p bo‘lib, har zamon, makon, xalq, millat, elat, mazhab va yo‘nalishining xos tafsirlarni uchratishimiz mumkin. Butun dunyoning, ayniqsa, musulmon olamining Qur‘on Karimga bo‘lgan cheksiz qiziqishi ulamolarni

doimo uni o'rganishga, uning tafsirini yozishga chorlab kelgan. Qadimdayoq tafsirlar va mufassirlar haqida alohida katta-katta kitoblar bitilgani fikrimizning dalilidir.

Tarjima so'zi lug'atda "bayon qilish" va "izoh qilib, ochiqdash" ma'nosini bildiradi. Istilohda esa bir tildagi kalimani boshqa tilga o'sha kalimaning barcha ma'nolarini va maqsadlarini saqlagan holda ta'bir qilishdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, islom olamida musulmonlarning soni ortib borgach, o'z-o'zidan islom dinining asosiy manbasi bo'lmish Qur'onni Karimni to'g'ri tushunish, undagi ma'nolarni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilishga to'g'ri keldi. Bu yo'l o'ziga yarasha mashaqqatli bo'ldi, albatta. Buning sabablaridan biri turli adashgan fiqrolar ham o'zlarini adashgan g'oyalarni Qur'onni Karimning tafsir va tarjimalariga aralashtirib yuborishidir. Natijada islom dini ulamolari bu ishni jiddiy ekanligini to'g'ri anglab yetib, bu ishga chuqur yondashdilar. Shu tariqa har bir yurt ulamolari o'zlari yashab turgan davlat tilidan kelib chiqib Qur'onni Karim ma'nolarini o'z tillariga tarjima qila boshladilar.

Shuni ta'kidlash joizki, Qur'onni Karimning hech qaysi tarjimasi asliyatning o'rnini bosa olmaydi. Qur'onni Karim mo'jizakor kalom bo'lgani uchun uni boshqa tilga mukammal tarjima qilishning imkoni yo'qligi barcha ulamolardan tomonidan e'tirof etilgan. Shunday bo'lsa-da, Qur'onni Karim ma'nolarini tarjima qilish joizligi quyidagi dalillarga asoslanadi:

Qur'onni Karimni arabchadan boshqa tilga tarjima qilish ilk islom davriga borib taqaladi. Manbalarda, ulug' sahobiy Salmon Forsiyning vatandoshlari bo'lgan forslar "Fotiha" surasining tarjimasini yozib berishini so'rab, unga maktub yo'llaydilar. Salmon forscha tarjimani payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vassalamga ko'rsatib olganidan so'ng, ularga jo'natib yuboradi. Shunga asosan Qur'onning ilk tarjimasi forsiy tilda qilingan, deyish mumkin.

Qur'onni Karimning "Ibrohim" surasi 4-oyati ham tarjima joizligiga asos sifatida ko'rsatiladi:

لَهُمْ لُبَيْبٌ قَوْمٍ بِلِسَانٍ إِلَّا رَسُولٍ مِّنْ أَرْسَلْنَا وَمَا

"Biz har bir payg'ambarni (hukmlarimizni) bayon qilib berishi uchun o'z qavmning tili bilan (so'zlaydigan qilib) yubordik". Ushbu oyat tafsirlarda quyidagicha izohlanadi: "Payg'ambar (a.s.) nafaqat arablar uchun, balki butun insoniyat uchun payg'ambar bo'lib yuborilganlar. Zero, Alloh taolo "A'rof" surasi 158- oyatida shunday marhamat qiladi:

جَمِيعًا إِلَيْكُمْ اللَّهُ رَسُولٌ إِنِّي النَّاسُ لِأَيُّهَا فَلْ

Ayting (ey, Muhammad!): "Ey odamlar! Men sizlarning barchangizga (yuborilgan) Allohning rasuli (elchisi)dirman". Holbuki, ular turli xil tilda so'zlashadilar. Unda Qur'on har bir tilda nozil bo'lishi kerak edi, degan mulohaza tug'iladi. Tarjima bu muammoni hal etadi. [1:70]

Ana shu ma'nolardan kelib chiqib, qur'onshunoslikka oid manbalarda Qur'on Karim tarjimasi ikki turga bo'lib o'rganiladi:

-harfiy (yoki lafziy), ya'ni so'zma-so'z tarjima. Unga ko'ra, Qur'oni Karim bir tildan ikkinchi tilga, uslub va tartibini, so'zlarning asosiy ma'nosini saqlagan holda o'girish tushuniladi. So'zma-so'z tarjima asl matndagi har bir so'zni ikkinchi tildagi muqobili bilan almashtirish demakdir.

-izohli (yoki ma'noviy) tarjima. Harfiy tarjimaning aksi bo'lib, nazm va uslubda asliyatga mos bo'lmagan tarjimadir. Unga ko'ra, so'zlarning asl ma'nosini saqlab qolish e'tiborga olinmay, matndan ko'zlangan umumiy mazmuni ikkinchi tilda ifodalash tushuniladi. Bu tarjima turida ikki jihatga e'tibor beriladi: asl matndagi iroda qilingan maqsadni anglash va uni tarjima qilinayotgan tilda ifodalab berish. Bunday tarjima asliyatga lug'aviy jihatdan muvofiq kelmasa-da, unda ma'no uyg'unligi ta'minlanadi.

Tarjimaning mazkur ikki turi farqini yaqqol ko'rsatib beradigan misol sifatida "Isro" surasining 29- oyatini ko'rsatish mumkin:

تَبَسُّطُهَا وَلَا غُنْفَكَ إِلَىٰ مَغْلُوبَةٍ يَدَاكَ تَجَعَّلَ وَلَا

"(Baxillik qilib) qo'lingizni bo'yningizga bog'lab ham olmang. (Isrofgarchilik qilish bilan) uni butunlay yoyib ham yubormang!"

Ushbu oyatni "Qo'lingni bo'yningga bog'lab qo'yma va uni juda uzun qilib cho'zma" deb so'zma-so'z tarjima qilinsa, qo'lni bo'yninga bog'lab qo'yish va uni uzun cho'zib yuborishdan taqiq ma'nosi kelib chiqadi. Tarjima matnida "qo'lni bo'yninga bog'lab qo'yish"dan maqsad "ziqnalik" va "uzun cho'zib yuborish" dan murod "isrof" ma'nosi ekani aks etmay qoladi. E'tibor berilsa, mazkur tarjimada so'z ma'nosini ifodalash uchun qavslar ichida izohlardan foydalanilgan.

Qur'oni Karim ilohiy, mo'jiza kalom bo'lib, unga o'xshash arabcha kalom keltirish imkoni bo'lmaganidan keyin uning maqsadini boshqa tilda, ayni shaklda bayon qilish imkonsiz. [1:68-69]

Rahmatulloh qori Obidov ustozimiz "Qur'on va tafsir ilmlari" nomli kitoblarida shunday yozadilar: Islom ulamolari, kimki ahli tafsir (mufasssir) bo'lsa, ya'ni Qur'oni Karimni tafsir qilish uchun zarur bo'lgan ilmlarni sohibi bo'lsa, tafsir qilishi mumkin ekanligiga ittifoq qilganlar. Mana shu ittifoq qilingan mufasssirlar qatoriga Qur'onni boshqa tilga ma'naviy tarjima qiluvchilar ham dohildirlar. Chunki tafsir qiluvchilar ham, ma'naviy tarjima qiluvchilar ham oyatlarning tartibini buzmasdan, biror kalimaning o'rnini o'zgartirmasdan Allohning murodini insonlarga yetkazadilar.

Biroq tafsir bilan ma'naviy tarjimaning alohida farqli jihatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Tafsir tili Qur'oni Karimning asl tili ekanligi, ma'naviy tarjima esa Qur'oni Karim tilidan boshqa tilda bo'lishi birinchi jihatidir. Ikkinchi jihati esa, tafsirni mutolaa qiluvchi qori Qur'oni Karim matni tilini ham tushunadi. Agar tafsirda xatolik sodir etilgan bo'lsa, undan darhol voqif bo'ladi. Ma'naviy tarjimani

mutolaa qiluvchi qori esa ko'pincha Qur'on matni tilini bilmasligi, natijada xato bo'lsa ham tarjimaga qat'iy ishonib qolishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dastlabki davrda, qur'onshunoslik masalalari bo'yicha sahobayi kiromlarda savollar ko'p tug'ilavermagan. Buning sababi, sahobalarni o'zlari arab bo'lganliklari va shu tariqa, arab tilining fasohati, balog'ati va unga doir bo'lgan boshqa ilmlarni ham yaxshi bilganliklari sabab bo'lgandir. Keyingi davr, ya'ni xalifalik va podshohlik davrlarida, islom dini turli mamlakatlarga keng yoyilgani sababli, Qur'oni Karimni tushunishda ancha muammolar vujudga kela boshladi. Shu tariqa Qur'oni karimga doir ilmlar ham fan sifatida rivojlana boshladi. Turli ajam xalqlari, o'z yurtlarida Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasini ham ishlab chiqa boshlashdi va bu Qur'oni Karimni tarjima usullari va shunga doir masalalarni qamrab oluvchi ilmlarni keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Davrlar o'tishi bilan esa har bir hududda, o'z allomalari hamda mufassir olimlari yetishib chiqa boshladi.

Xullas, dunyoda davlatlar, hazoralar va madaniyatlarning globallashuv jarayoni keskin pallaga kirgan hozirgi sharoitlarda xalqimiz har qachongidan ogoh va hushyor bo'lishi, do'st kim, dushman kim – yaxshi ajrata olishi, e'tiqodini, imonini hamisha mustahkamlab borishi, bu yo'lda xorijdan turib xuruj qilayotgan soxta mafkuralar va asossiz oqimlarning safsatalariga emas, dinimiz asosi bo'lmish Qur'oni Karim va sunnati nabaviyya kabi asl manbalarga suyanishi kerak bo'ladi. Demak, Qur'oni Karimning yangi-yangi qirralarini o'rganish, uni yangidan kashf etish ham davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. M.M.Agzamova Islomshunoslik [Matn]: darslik / M.M.Agzamova – Toshkent "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. –176 b.
2. Qur'on ilmlari (savol-javoblar): diniy-ma'rifiy / Ahmadxon Rashidov, - Toshkent: "Book Media Shop" MCHJ qoshidagi "Munir" nashriyoti, 2024. - 288 b.
3. Sh-96 Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Qur'on ilmlari, – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2019. – 504 b.